

KO'ZI OJIZLAR TA'LIMI JARAYONIDA KORREKSION FANLARNING O'RNI

Abduraxmonov Abdulvositbek Nurmuhammad o'g'li

Andijon davlat chet tillari instituti

Badiy tarjima mutaxassisligi magistranti

***Annotatsiya:** mazkur maqolada ko'zi ojizlar ta'limida korreksion fanlar, maqsad-vazifalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari borasida so'z ketgan.*

***Kalit so'zlar:** korreksion, matorika, tiflografika, obyekt, Brayl yozuvi*

***Annotation:** this article discusses the correctional subjects in the education of the blind, their goals and objectives and their specific features.*

***Keywords:** correction, math, syphilographies, alphabet, Braille*

Mening holatimda olam haqidagi tasavvr qila olishim o'z o'zidan shakillanib qolmagan. Maxsus maktab internatlarda o'tiladigan korreksion fanlar bunga sababdir. Korreksion tuzatish, to'g'irlash demakdir. Nogironligi bo'lgan shahslarni hayotga tayyorlashda bir necha korreksion fanlar mavjud. Moljal olish, mayda qo'l matorikasi, ijtimoiy hayotga tayyorlash, tiflografika kabilar.

Mo'ljal olish fanida ko'zi ojizlar mustaqil harakatlanishga o'rgatiladi. Dastlab xonada harakatlanish o'rgatiladi, bunda o'quvchi o'tirgan joyidan eshik oldiga borib kelishni va eshik- derazaning ochiq yoki yopiq ekanligini quloqlari orqali eshitib anglaydi. Ikkinchi bosqichda xonaning devorlariga, buyumlarga teginish orqali moljal olinadi. Bu jarayonda o'rganuvchi ehtiyot chorasi sifatida qo'llarini biroz oldinga uzatib harakatlanadi. Yotoqxonada ham shu tariqa mo'ljal olib yurish o'rgatiladi. Uchinchidan tashqarida mustaqil yurishni o'rganishda ikki qismga ajratiladi. Atrofdagi obyektlarga borishda bir xil holatda tashlangan qadamlar orqali borish asosiy maqsaddir, bu vaqtda har bir tashlangan qadamlar sanab boriladi. O'qituvchi o'quvchini yetaklab birgalikda yurib boradi, so'ngra o'quvchida tushuncha hosil bo'lgani mustaqil harakatlanadi. Keying bosqichda o'quvchi hassa yordamida mo'ljal olib yurishni o'rganadi. Katta ko'chalarda, avtomobil yo'llarida havfsiz mustaqil harakatlanishda hassa muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari atrofdagi to'siqlarni, oyoq ostidagi chuqurliklarni his qilishda ham yordam beradi. Foydalanuvchi obektga borishda, hassani o'ng qolimizda tutib oyoqlarimizdan biroz oldinda bo'ladi, sababi to'siqlarni, baland- pastliklarni ertaroq aniqlashdir. Mayda qo'l matorikasi fanining asosiy maqsadi barmoqlardagi sezish hususiyatlarini oshirishdir. Chunki yuqorida ko'zi ojiz shahslar uchun tabiatni anglashda barmoqlarning o'rni beqiyos ekanligiga to'htalib o'tdik. Fan haqida ma'lumot beradigan bo'lsa, mahsus brayl yozuvini oqishga yordam berish demakdir. Dastlab oqituvchi tomonidan oquvchilarga turli hil shakldagi marsalar qollariga tutqaziladi, va har biriga alohida alohida tohtalin otadi. Bunda pridmetlarning shakli rangi aytib, songra oquvchilarga aralastirilgan holatda takroran tarqatiladi, ular barmoqlari bilan paypaslab

nomini, shaklini aytib beradilar. Sezish hissi biroz shakillangandan so'ng, keying bosqichlarga o'tiladi. Brayl yozuvidagi yozilgan harflar ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntiriladi. Bu jarayon ko'rish imkoniyatini butunlay yoqotganlarda oson ko'chadi, ammo yorug'likmi biroz ko'ra oladiganlarda biroz qiyin bo'ladi. Asosiy sabablardan biri ko'rish imkomiyati to'liq yoqolgan o'quvchilar butun diqqat etiborini qo'l bilam pridmetni ushlab anglashga qaratadi. Keying toifadagilarda esa aksincha, ular ham qo'lda ushlab, ko'z bilan ko'rishga harakat qiladilar, albatta bunday holat zararlidir. Chunki ko'z nurining yanada zayiflashishiga sabab bo'ladigan omillardan biridir. Agar ular ham barmoqlaridagi sezgini rivojlantira olishsa, oz bo'lsada ko'z nurini saqlab qoladilar. Mayda qo'l matorikasi fanida asosan etibor qo'llarimizdagi ko'rsatkich barmoqlarga qaratiladi, maqsad o'quvchi kitobni o'qishda qiynalmasligi uchum. Ong ko'rsatkich barmog'imiz har bir qatorni to'liq o'qiymiz, chap ko'rsatkich barmog'imiz esa o'qilayotgan qatorning pastki qatori boshida turadi. Qatorlarni adashtirib yubormaslik uchun, bilamiski Brayl yozuv qatorlari bir biriga yaqin joylashgan bo'ladi.

Ijtimoiy hayotga tayyorlash fani bu ko'zi o'zislarni mustaqil hayotga bolalikdan boshlab tayyorlashi bilan ahamiyatlidir. Asosan qizlar uchun juda foydali fandır, chunki ular maktabni yakunlab mustaqil hayotga qadam qo'yganda kerak bo'ladigan ishlar, hususan yirtilgan kiyim kechaklarni tikish, kir yuvish, meva va sabzavotlarni artish, ovqat pishirish kabilar o'rgatiladi. Quyi sinflarda fanning nazaryasi o'tiladi, yuqori sinf esa amaliy jihatdan o'rgatiladi. Shu tariqa mustaqil hayotga tayyor bo'ladilar. Men shunday ustozlarimni bilaman, ular birovning yordamisiz mustaqil taomlar pishira olishadi, meva va sabzavotlarni chiroyli arta olishadi, hattoki ignaga tili yordamida ip ham o'tkaza oladilar. Ustozlarimning biridan ovqatni pishayotganini, qaysi vaqt qaysi mahsulotni solishni qanday bilasiz deb soraganimda, taom pishish jarayonida doimiy hidlardan tashqari qandaydir biz bilmagan hidlar orqali farqlashini aytgan.

Yuqoridagi mashg'ulotlarni bajarish uchun, avvalo diqqatimizni bir joyga jamlashimiz kerak. Diqqat inson ongining ma'lum obyektlarga yo'naltirishi va to'planishi. Uning fiziologik asoslari bu miyyada optimal qo'zg'alish o'chog'i hosil bo'ladi. Diqqatning fiziologik asosini mukammalroq miyyaning o'rganish uchum miyyaning uyqu holatidan tetiklik holatiga otish mehanizmlarini chuqurroq o'rganish zarur.

Diqqatning turlari:

1. Ixtiyorsiz diqqat. Bu inson irodasidan holi tarzda diqqatni qaratishni maqsad qilib qo'ymagan vaqtda ruhiy faolyatning yo'naltirilishi va toplanishi.

2. Ixtiyoriy diqqat. Irodaviy tartibga solish asosida yuzaga keladigan diqqat.

3. Ixtiyoriydan keying muvoffiqlashtirilgan diqqat irodaviy zo'r berish asosida hosil bo'lgan diqqatdan song hosil bo'ladigan va obyektning mazmun- mohiyati qiziqarliligiga qarab ixtiyorsiz diqqatga o'tuvchi diqqat.

Diqqatning quyidagi hususiyatlari mavjud:

1. Konsentratsiyasi diqqatning obyektlarda toplanish darajasi.

2. Tebranish; diqqatning susayib, keyin kuchayishi.

3. Ko‘lami qisqa vaqt ichida diqqat o‘z ichiga oladigan obyektlar soni. Insonda u uchdan yettigacha bolish mumkun.

4. Zarur bo‘lganda diqqatning bir obyektidan ikkinchi obyektga ko‘chirish.

5. Bo‘linishi; bir vaqtning o‘zida diqqatni bir necha obyekt ustida ushlab turish.

6. Parishonxotirlik; obyekt ustida diqqatning to‘plana olmasligi.

7. Barqarorlik; diqqatning obyekt ustida uzoq vaqt to‘planib turishi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson dunyoni sezgi organlari orqali idrok qiladi, ko‘zi ojizlar esa aynan sog‘lom insonlar kabi dunyoni sezgi organlari orqali xis qiladilar, farqi shundaki, ko‘zi ojizlar ko‘rish ne‘matidan mahrum bo‘lgan, idrok etish shakli esa bir xil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.N. Abduraxmonov, Brayl yozuvining paydo bo‘lishi. JOURNAL OF IQRO2, 2024.

2. Karimbaevna, T. M., Burkhanovich, A. O., Sokhiba, Z., Mirza Ali, G. A., Xasanovna, Y. D., Ibragimovna, M. Z., ... & Ergashvoy Ugli, M. E. (2024). Synergistic effects of Paclitaxel and Doxorubicin with liposomes nanoparticles in Cancer therapy: A review. *Journal of Nanostructures*, 14(2), 578-587.

3. Burxonovich, A. O. (2024). ZOOFRAZEMALARNI TADQIQ QILISHDA DA TISHKINA TAHLIL METODI (RUS VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA). *PEDAGOG*, 7(9), 131-134.

4. Burxonovich, A. O. (2024). EINIGE BEISPIELE ZUR FÖRDERUNG DER LESEKOMPETENZEN. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(4), 252-253.